



**«AMALIY MATEMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING
ZAMONAVIY MUAMMOLARI»
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TEZISLAR TO'PLAMI**

**ABSTRACTS
INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
«MODERN PROBLEMS OF APPLIED MATHEMATICS AND
INFORMATION TECHNOLOGIES»**

**ТЕЗИСЫ
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
«СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИКЛАДНОЙ МАТЕМАТИКИ И
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ»**

«AMALIY MATEMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI» XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



2. Nafasov M.M. The effectiveness of the use of mobile technologies in the educational process. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). 2020. pp. 142-166. DOI: 10.36713/epra2013.

LOKAL TARMOQDA KOMPYUTERLARNI NAZORAT QILISH DASTURIY VOSITALARINI TA'LIMDA QO'LLASH HAQIDA

¹Rashidov A.E., ²Rashidov N.O'.

¹Samarqand davlat universiteti, assistent

²Samarqand davlat universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada kompyuter sinf xonasida dars o'tayotgan o'qituvchi o'z talabalarining lokal tarmoqqa biriktirilgan kompyuterlarida bo'layotgan jarayonlarni masofadan nazorat qilishiga va boshqarishga yordam beruvchi ayrim dasturlar tahlili, jumladan, Radmin dasturi, undan foydalanish va bu dasturiy vositalarning ta'lim sifatni oshirishdagi ro'li haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Axborot texnologiyalari, kompyuterli ta'lim texnologiyalari, server va mijoz kompyuterlar, bir kompyuterdan turib ikkinchi kompyuter ish sohasini nazorat qilish, Radmin Viewer, Radmin Server, kirish huquqlari.

Bugungi ta'lim tizimini isloh qilishning asosi ustuvor ko'rsatgichlaridan biri bu albatta ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashdir. Shuning uchun ham Respublikamizda bu borada ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi, «Elektron tijorat to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari asos qilib olinmoqda [1].

Axborot texnologiyasi bu - axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar [2].


Axborot texnologiyalarining ta'limda qo'llashning eng ko'zga ko'ringan texnologiyasi bu albatta kompyuterli talim texnologiyalaridir. Kompyuter ta'limi texnologiyalari – ta'lim oluvchilarning o'qish, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni to'plash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy-metodik ta'minot asosida tashkil etiladigan ta'limning shakl, metod va vositalari majmuidir [3].

Kompyuterli ta'lim texnologiyalari asosida dars avalambor kompyuter bilan bog'liq fanlarning amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tishda katta samara beradi. Chunki bunday ta'lim texnologiyasida har bir o'quvchi amaliy ishlarni o'zlari alohida alohida kompyuterlarda bajarib ko'rganligi sababli ta'lim jarayoni qiziqarli va tushunarli o'tadi va bu albatta ta'lim sifatning oshishiga sabab bo'ladi. Lekin shu bilan birgalikda kompyuterli ta'lim jarayoni o'qituvchilar oldida ayrim muammolarni ham hosil qiladi. Shunday muammolardan biri talabalarning dars davomida kompyuterda qanday amallar bajarayotganligi (darsga taluqli bo'lmagan ishlar bilan shug'illanmayotganligini) nazorat qilish va ularning kompyuterlarini boshqarishdir.

Albatta hozirgi kunda axborot texnologiyalarining taraqqiy etganligi sababli bu muammoni hal etsa bo'ladi. Buning uchun tarmoq bosh kompyuteri (serveri)dan turib tarmoqdagi boshqa (mijoz) kompyuterlarni boshqarish uchun foydalaniladigan dasturiy vositalardan ta'lim jarayonida foydalanishimiz yetarli bo'ladi. Hozirgi kunda shunday dasturiy vositalarning bir qancha turlari mavjud va ularning eng ommalashganlari quyidagilardir: Radmin (Windows-ning turli xil versiyalari bilan mos keladi), Microsoft Remote Desktop, Mikogo, LogMeIn, pcAnywhere, GoToMyPC, UltraVNC va boshqalar. Yuqorida keltirilgan dasturlarning o'ziga

xos yutuq va kamchiliklari mavjud va aynan Radmin internetsiz ham lokal tarmoqda masofadan nazorat qilishning eng oson yechimini taklif etadi. Radmin dasturi ikkita qisimdan iborat bo'lib ulardan biri tarmoqda nazoratni boshqaradigan (o'qituvchi) kompyuterga o'rnatiladi. Bu dastur Radmin Viewer dasturi hisoblansa, ikkinchi yani tarmoqda boshqariladigan (mijoz - o'quvchilar kompyuteri) kompyuterga o'rnatiladigan qismi Radmin Server dasturi hisoblanadi. Bu ikkala dasturni ham www.radmin.com saytidan yuklab olishingiz mumkin [4].

Bu dasturlarda ishlash uchun dastavval Radmin Viewer dasturini server (nazoratni boshqaradigan o'qituvchi kompyuteriga) kompyuterga o'rnatib



olamiz.



So'ngra ushbu dasturda nazorat o'rnatiladigan kompyuterlar ro'yxatini shakllantiramiz yani boshqariladigan kompyuterlarni nomini va IP manzilini dasturga kiritamiz. Buning uchun Radmin Viewer dasturi


bosh oynasidagi



belgini bosamiz. Hosil bo'lgan *Новое соединение* oynasining *Имя запуска:* darchasiga mijoz kompyuter nomini, *IP adres* ili *DNS imya* maydoniga mijoz kompyuter IP manzilini yoki kompyuterning tarmoqdagi nomini yozamiz. Keyingi

qadamda mijoz kompyuterlarga Radmin Server dasturini o'rnatamiz olamiz. O'rnatgandan so'ng Pusk menyusida hosil bo'lgan Zapusit Radmin Server dasturini tanlash yordamida bu dasturni ishga yurgizamiz (odatda dastur o'rnatilgan vaqtda avtomatik dastur ishga yurgizilgan bo'ladi), Keyingi qadamda o'quvchi kompyuteriga kirish huquqlarini o'rnatamiz buning uchun Настройки Radmin Server bosh oynasidan Права доступа... tugmasini tanlab hosil bo'lgan oynadan yana Prava dostupa tugmasini tanlaymiz va hosil bo'lgan Система безопасност Radmin oynasida ruxsat qoidalarini o'rnatib chiqamiz. Bu oynadan Добавит... tugmasini bosish yordamida hosil bo'lgan oynaga Foydalanuvchi nomini va kamida 6 ta belgidan iborat parolini kiritamiz. Foydalanuvchi nomini kiritgandan so'ng ushbu foydalanuvchiga kirish ruxsatlarni ko'rsatishimiz mumkin bo'ladi (1-rasm). Tegishli ruxsatlarni o'rnatganimizdan so'ng server kompyuterdan bu kompyuterlarga kerakli murojatlarni amalga oshirishimiz mumkin. Buning uchun dastavval o'qituvchi kompyuteridagi Radmin Viewer dasturi oynasidagi 2-rasmda ko'rsatilgan qismida keltirilgan murojaat turlaridan birini tanlaymiz. 2-rasmda 1-murojaat mijoz kompyuterni to'liq boshqarishda; 2-murojaat mijoz kompyuter ekranini kuztib turish maqsadida; 3-murojaat mijoz kompyuterning buyruqlar satri (cmd oynasi)ga o'tish uchun; 4-murojaat mijoz va server kompyuterlar orasida fayl almashish uchun; 5-murojaat mijoz kompyuterni o'chirish maqsadida; 6-murojaat mijoz va server kompyuterlar orasida yozishmalar amalga oshirish maqsadida; 7-murojaat mijoz va server kompyuterlar orasida telefon aloqasini o'rnatish maqsadida; 8-murojaat server kompyuterdan mijoz kompyuterga xabar yuborish maqsadida amalga oshiriladi.

Murojaat turi tanlangandan so'ng muroajaat amalga oshirilayotgan kompyuterlardan birini tanlab (misol uchun 3-a rasmda 2-komp ni) sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosish orqali hosil bo'lgan 3-b rasmda ko'rsatilgan darchalardan birinchisiga foydalanuvchi nomini, ikkinchisiga foydalanuvchi parolini kiritamiz va murojaat amalga oshirishladi va shu bilan oq'ituvchilar masofadan turib o'quvchilar kompyuterlarni nazorat qilishlari mumkin bo'ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Aripov, B. Begalov, U. Begimquloy, M. Mamarajabov "Axborot texnologiyalari" Toshkent - «Noshir» - 2009
2. Amirov D.M. va boshqalar. "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati" qayta ishlangan to'ldirilgan ikkinchi nashr. Toshkent 2010.
3. N.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Saifurov, A.Turaev "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" Toshkent – 2015
4. www.radmin.com

TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Dilova Nargiza Gaybullaevna

Buxoro Davlat Universiteti, Boshlang'ich ta'lim naziriyasi kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dosent.

E-mail: Nargiza.dilova@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari, imkoniyati, fan, texnika va texnologiyalar taraqqiyotida o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, ta'lim sifati, matematik savodxonlik, innovatsion ta'lim, kasbiy mahorat, fanga oid va tayanch kompetensiyalar. differentsiyalashish va integratsiya jarayonlari

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы, возможности использования информационных технологий в образовании, вопросы совершенствования профессиональной подготовки учителей в области развития науки, техники и техники.

Ключевые слова: информационные технологии, качество образования, математическая грамотность, инновационное образование, профессиональные навыки, наука и базовые компетенции. процессы дифференциации и интеграции

Annotation: The article discusses the theoretical foundations, the possibility of using information technologies in education, the issues of improving the professional training of teachers in the development of science, technology and technology.

Keywords: information technology, quality of education, mathematical literacy, innovative education, professional skills, science and basic competencies. differentiation and integration processes

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida o'rta maktab tizimi oldiga qator muhim vazifalar qo'yilgan. Jumladan, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasini, uning vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda o'quvchilarni o'qitishni jadallashtirish² ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Fan, texnika va texnologiyalar taraqqiyotining bugungi darajasi bilan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni orasidagi mavjud

² O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // 2020 yil 23-sentyabr

Bagbekova L.K. Analysis of open online courses in computer science.....	490
Sadullayev I.Sh. Ta'limda smart texnologiyalarni qo'llash	492
Каримова Н.О., Акбарова Ш.А. Компьютерли таълим воситалари	494
Суяров А.М., Суярова К.С. Педагогик олий таълимда талабаларнинг касбий махоратини шакллантиришда замонавий ахборот технологиялардан фойдаланиш.....	495
Расулова З.Д. Талабаларнинг мустақил ишларини ташкил қилишда дастурий таълим воситаларидан фойдаланиш.....	495
Fayziyeva D.H., Yaxuyayeva Sh.T. Muammoli o'qitish texnologiyalari va ulardan "internet texnologiyalari" mavzusini o'qitish jarayonida foydalanish metodikasi.....	499
Опокина Н.А., Жумаев Ж. Преимущества математических пакетов при обучении в экономических специальностях	501
Сайидова Н.С., Жўрақулов Ж.Ж., Содикова Д.Қ. Создание мультимедийных курсов обучения по педагогическим программам	503
Саидова Х.Х., Мухаммадова З.О. Ихтисослик фанларини ўқитишда ахборот технологиялардан фойдаланиш	505
Ахмедов Н.О. Уч ўлчовли компьютер графикасини ўқитишда электрон таълим ва инновацион технологияларни қўллаш	507
Murodova Z.R. A mechanism for developing intellectual tasks focused on visual potential.....	509
Саидова М.Р. Использование текстов по специальности информатика на занятиях русского языка.....	511
Muradova F.R. Form and methods of teaching specialty subjects in higher education with virtual laboratories	512
Kadirova Sh.M. The specificity and capabilities of distance learning.....	514
Ҳайитова И.И. Мустақил таълимда дидактик мақсадга эришиш воситаси сифатида модулли таълимнинг ўрни	516
Маклецов С. В., Опокина Н. А., Хабибуллина Г. З. Организация работы студентов ит-направлений в рамках дисциплин компьютерного цикла с использованием сервиса github..	519
Маматов Т. Использование VR и AR технологий в обучении математике.....	521
Tahirov B.N. Bulutli texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari.....	522
Abdullaeva B.S., Baratov F. Matematikani o'qitishda qo'llaniladigan dasturlarni o'qitishni multimedia texnologiyalari.	524
Axtamova L.A., Nafasov M. M. The importance of using the "e-magistr" application for higher education	527
Rashidov A.E., Rashidov N.O'. Lokal tarmoqda kompyuterlarni nazorat qilish dasturiy vositalarini ta'limda qo'llash haqida	529
Dilova N.G. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari.....	531
Dilova N.G., Raxmatullayeva N.K. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashning pedagogik - psixologik omillari	534
Baboyev A.T. Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va o'quv vazifalari	537
Nazarov Sh.E., Khakimova N.Kh. Usage of integration of information technologies in teaching foreign languages	539
Назаров Э.С., Мардонов Н.А. Особенности интегрирования информационных технологий в преподавании предмета физики.....	542
Назаров Э.С., Назарова Ш.Э., Тўраев И.Б. Академик лицейларда физика фани лаборатория ишларини бажарилишининг самарадорлигини оширишда web-технологиялардан фойдаланиш	544
Kasimov F.F. Dasturlashni o'qitishda dastur bajarilishini vizual taqlid (imitatsiya) qilish metodikasi.....	546
Зарипова Г.К., Ахтамов Р.А., Авезов М.Ф. Педагогическое сотрудничество в высшем образовании	547
Savurov A., Kurbanova Sh.H. The effective use of digital technology in the english language classroom	549
Тиллаева Ш.М., Камалова Ф. Дистанционное обучение, как средство обмена учебной информацией на расстоянии	551